

## Maktabgacha Ta'limda Ekologik Tarbiyaning Maqsadi

*Ergasheva Sarvinoz*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, tabiatni asrab avaylashi, o'simliklarning hayotimizdagi naqadar ahamiyatga ega ekanligi, foydali xususiyatlari, tabiatimiz ko'rki bo'lgan gullar, turli-tuman daraxtlar va ajoyibotlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik tarbiya, manzarali o'simliklar, yashil olam, tabiatdagi ranglar uyg'unligi.

Inson dunyoga kelibdiki, tabiat bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar dastlab kichik muhit ya'ni, o'zi ko'rib turgan atrof- olam, do'stlari, ota-onasi, ko'chasi va yashab turgan muhit bilan ulg'ayadi. Aynan shu davrda bolalarda atrof-muhitga, tabiat bag'ridagi barcha o'simliklar-u, jonivorlarga bo'lgan munosabati shakllanadi. Bolalarga tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni so'zlab berish, unga nisbatan muhabbat uyg'otish tarbiyachilardan mahorat talab qiladi.

Tarbiyachi-pedagoglar bolalarning tabiat haqidagi tasavvurini shakllanishda turli usullardan foydalanishi kerak. Tabiat qo'ynidagi dars jarayonlari, mashg'ulotlar, sayrlar tashlik etishi va turlicha yondashishi mumkin. Darslar va mashg'ulotlarni tabiat qo'ynidagi go'zal manzaralar ostida olib borsa, bola estetik jihatdan ham rivojlanibz tasavvurlarini kengaytira oladi. Ochiq havoda sayr qilish mobaynida esa turli yashil o'simliklar, gullar hamda ularning xususiyatlari haqida so'r borsa bolada ma'lumotlar yig'iladi. Biz tabiat bilan uzviy bog'liq ekanligimiz haqida tushuncha paydo bo'ladi.<sup>1</sup> Maktabgacha ta'limda "Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish" ga doir yangi qarorlarning asosiy maqsadi amaldagi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish orqali tarbiyalanuvchilarni (bolajonlarni zero, maktabgacha tarbiya tashkiloti emas balki, ta'lim muassasasi) Maktabgacha ta'lim tashkilotida tabiat bilan tanishtirish bilan cheklanib qolmasdan balki ularni ekologik madaniyatli qilishning ilk qadamlarini singdirishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish bolajonlarni tabiat bilan tanishtirish davomida ularni o'rab turgan mahalliy sharoitdagi atrof tabiiy muhiti-ekotizimlarni muxofaza qilish, undagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning buzilganlarini qayta tiklashda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalarga ega qilish vazifasi kiradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar tabiatan kuchli, sog'lom bo'lishi kerak. Buning asnosida esa bolalarning har bir kuni rejalashtirilgan holatda bo'lishi lozim. Ilk qadam davlat o'quv dasturida bolalarning har bir kuni belgilangan. Bolalar bilan sog'lom turmush tarzini birga urishda ham tabiatning hissasi bor. Ushbu atrof- olamdagagi ekologik tarbiya sog'lom bola va toza muhit garovidir.

Quyoshli ochiq havoda yoki suvda bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiylar emotsiyalar paydo bo'ladi.

Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirishga, uni yuqori va past temperaturaga moslashuv qobilyatini oshirishga yordan beradi.

Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga keladi, ya'ni kishi organizmi turli xil metereologik omillarning o'zgarishiga o'z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi.

Quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va bolalarni kasalliliklardan saqlaydi.

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi, ergashevasarvinoz72@gmail.com



Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning vazifalari quyidagilar;

- Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash
- bolalarni kichik yoshidayoq tabiatga mehr qoyishini shakllantirish
- tabiatni ifloslaningdan saqlash
- hududiga daraxtlar ekish
- tabiiy muhitimizni kelajak avlod uchun qanday bo'lsa o'shanday yetkazish
- tejamkor bo'lish, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish
- tabiat uchun zarar keltiradigan buyumlardan foydalanmaslik
- atrof-muhitni muhofaza qilish

Albatta, ushbu bilimlarni bolalarga o'rgatish jarayonida tabiat bilan uzviy bog'liqligimiz va undagi har bir narsa hayotimizda naqadar ahamiyatga ega ekanligi haqida tasavvur va bilimlar shakllanadi.

Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o'rtaida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir. Inson tabiatga, o'zini o'rab olgan muhitga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o'rganishi va ular asosida o'z hayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo'llarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi va shu ofatlardan halok bo'ladi. Ekologik ta'lim va tarbiyaning tub ma'nosi - tabiat va jamiyat o'rtaсидаги doimiy birlik va ularni bir-birlariga bug'luvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir. Ekolgik ta'lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtidan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan halqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berishning maqsadi ham aynan shulardir. Bolalarda vatanparvarlik tuyg'ularini, tabiat haqidagi g'oyalarni shakllanish. Barcha tirik mavjudodlarga insonparvarlik munosabatida bo'lish, atrofdagi dunyoni kuzatish, suhbatlar hamda tabiatni asramoq kerakligini anglash.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Asqar Nigmatov. Maktabgacha ekologik ta'lim va tarbiya Toshkent "Innovatsiya - Ziyo" 2020-yil 33-bet.
2. N.N. Djamilova Bolalar jismoniy tarbiyasi. Toshkent "NIF MSH" 2021-yil 22- bet.
3. <https://zenodo.org/record/6568714/files/234-236.pdf>

